

# INGLIZ TILIDA „HAND” KONSEPTI LEKSIK VERBALIZATORLARINING SEMANTIK STRUKTUR TADQIQI

Mamadaliyeva Xabibaxon Muhiddin qizi

ADCHTI boktoranti

yakubovmuhammadjon15@gmail.com

Muayyan xalq, millat ijtimoiy ongidan o‘rin olgan konseptlar xalq konseptosferasi tarkibiy qismiga aylanadi. Bunday konseptlar ichki va tashqi olam bo‘laklari, turli relyatsion munosabatlar haqidagi bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Professor M.A.Abduvaliyevning fikriga ko‘ra, konsept mental tuzilma bo‘lib, u tizimlashgan va tartiblashgan tarkibga ega va bu tarkib obraz, tushuncha, yetakchi va ikkinchi darajali obyektiv va subyektiv, yorqinlik darajasi turlicha bo‘lgan kognitiv bilimlar va baholardan iborat (1)

Xalq millat va etnos ijtimoiy ongi va xotirasiga muhirlangan konseptlar va ularning kognitiv belgilari tushuncha maqomiga ega bo‘lib, kommunikatsiya jarayonida ularga ehtiyoj yuzaga kelganda til va nutq birliklari semantikasi orqali verballashadi, lisoniy tasviriga ega bo‘ladi. Xalq millat ijtimoiy ongida olam haqida to‘plangan bilimlarni olamning konseptual manzarasi deb atashmoqda. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, har bir til, shu jumladan ingliz va o‘zbek tillari ham olamning milliy-lisoniy manzarasiga ega bo‘ladi. Taniqli o‘zbek tipolog-tilshunos olimi O‘.Q.Yusupovning haqli e‘tirofiga ko‘ra “...olamning milliy lisoniy manzaralari ko‘p jihatdan bir birlariga mos keladilar”.(3) Haqiqatda ham german, turkiy, roman, slavyan xalqlari konseptosferasidan o‘rin olgan masalan: bosh, qo‘l, ko‘z, oyoq kabilar haqidagi tushunchalari, obrazlar, ularning interpretasiyalari (baholari) bir xil ekanligi, muvofiq ravishda ularning lisoniy manzaralari ham mos kelganini kuzatish mumkin: head-bosh-голова, hand-qo‘l-рука, eye-ko‘z-глаза va boshqalar.

Konsept tushunchadan farqli o‘laroq ko‘p sathlilik hususiyatiga ega. Demak konsept nominatsiyasi so‘z, so‘z birikmalari morfologik, frazeologik va paremiologik birliklar, gaplar,matnlar orqali verballashuvi mumkin.

Arxikonseptual sema asosida tizimlashgan bunday birliklar majmuini A.P.Babushkin va I.A.Sternin konseptning nominativ maydoni, deb atashni taklif qildilar(4). Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, konsept nominatsiyasida nafaqat leksemalar, morfemalar, so'z brikmalari, balki gap maqomidagi turli predikativ kanstruksiyalar, ham ishtirok etishini hisobga oladigan bo'lsak, konsept makromaydonini nominativ-komunikativ maydon, deb atash to'g'riroq bo'ladi deb o'ylashimiz Turli til sathlariga mansub maydon konstituentlari konsept nominatsiyasi uchun bevosita xoslanganligi yoki bilvosita xoslanganligi, faollik darajasi, qo'llanish ko'lamining tor yoki kengligi, tuzilishiga ko'ra bir-birlaridan farq qilishi mumkin. Manashu jihatlarni hisobga olgan holda professor M.A.Abduvaliyevning bu boradagi fikrlariga qo'shilgan xolda nominativ-komunikativ makromaydonini tashkil qiluvchi lisoniy va nutqiy birliklarni ikki guruhga ajratamiz: birinchi darajali til va nutq birliklari va ikkinchi darajali til va nutq birliklari. Birinchi guruhga mansub til va nutq birliklari mazkur maydonning markaziy qismidan o'rin olsa, ikkinchi darajali birliklar uning chet (periferiya) qismidan joy oladilar. U yoki bu konseptning lisoniy ifodalari ko'pligi yoki ozligi konseptning nominative zichlik darajasini ko'rsatadi. Rus olimi G.G.Slishkinning yozishicha, "Konseptning belgilar orqali ifoda imkoniyatlari qanchalik ko'proq bo'lsa konsept shunchalik qadimiy, uning lisoniy jamoasi uchun qimmat va ahamiyati shunchalik yuqori bo'ladi".

Har qanday konsept verballashuvini til sathlari kesimida, aniqrog'i makro maydonni mikromaydonlarga ham ajratib o'rganish mumkin. Ushbu tadqiqot ishida "Hand/Qo'l" konseptini voqelantiruvchi leksik sath, birliklarining semantik-struktur tadqiqini amalga oshiramiz. "Hand/Qo'l" konsepti leksik sath birligi bo'lmish leksema (nutqda so'z) orqali ism yoki nom olgan. Masalan: Hand ot leksemasi qadimgi ingliz tilida hand,hond yuqori qadimgi Nemis tilida hant, Got tilida handus, shakillarida hamoyon bo'lgan. Vebsterning uchinchi yangi xalqaro log'atida hand leksemasining 21ta ma'nosi qayd etilgan. Uning bosh ma'nosi bilan, bosh barmoq va narsalarni

ushlashga hizmat qiluvchi ta'na a'zosi bo'ladi, uning tarkibida barmoqlar(2) barmoqlarning qo'lga to'g'ri keluvchi shakli yoki vazifasiga ko'ra undan farq qiluvchi a'zosi: A kangaroos forearms seem undeveloped but the powerful five-fingered hand are skilled at feinting, cloutning; b: qo'l vazifasini bajaruvchi yoki qo'lga o'xshamagan narsa: the hind foot of an ape. Raqamlar indikator yoki ko'rsatuvchisi (the hands of a clock); ko'rsatkich barmoqning yozilgan holatda yo'nalishni ko'rsatishi yoki biron narsaga e'tiborini qaratish (index9); apelsin va boshqalarning birgalikda sotilgan qismlari; bananlarning 9 tadan 20 tagacha bo'lgan bir o'zakka birlashtirilgan bo'lagi va boshqalar. Hand leksemasining keytingi (2a) ma'nosi shaxsiy mulk (odatda ko'plikda): anxious not to let the property get out of his hands; b(1) nazorat rahbarlik (odatda ko'plikda): kept the management of the firm in his own hands; (2) nazorat va boshqaruv huquqi, imtiyoz: allowed the teacher a free hand in her treatment of the children 3a: tomon yo'nalish: armed men were running and fighting on either hand; b: masala yoki bahsning ikki tomondan biri: ko'rilyotgan subyekt yoki narsaning ikki yoki undan ortiq aspektlari: on the one hand we can appeal for peace, or on the other declare war; c(1) o'rash (burash) ning usuli yoki o'ng qo'li yoki chap qo'lga aylanish: the hand of the spiral a right-hand screw; (2): tashqaridan yoki ichkaridan qaraganda eshikni o'ng yoki chapga ochilishini belgilovchi xususiyati; 4a va'da yoki kelishuvni ko'rsatish yoki shartlaridan qoniqish: without further talk he gave me his hand on deal and we closed it; b: unashtiruv yoki turmush qurish va'dasi: asked the man for his daughters hand; 5 hands: chavandozlikda boshqaruv ishlari: He didn't ride well, he hadn't good hands. H.G.Wells; 6a: yozish usuli: qo'l yozuvi: a handsome hand; b: imzo; some write require a judges hand; 7a: malaka, qobilyat: wished to try his hand at painting; b: muhim qism: several men had a hand in the crime; 8: 4 duymga teng o'lchov birligi, asosan otlarning bo'yiga nisbatan qo'llanadi; 9a: yordam yoki qo'llar (jismoniy harakatlar bilan): gave the old man a hand with his heavy bundles; b: ishtirok qiziqish: a project in which several people had a hand; c: gulduros qarsaklar:

gave the singer quite a hand; 10a: (1) qarta o'yini yoki doska o'yini ishtirokchisi; (2) tarqatilgandan keyin o'yinchi qo'lidagi qartalar; (3): o'yinning har qanday paytida o'yinchi qo'lidagi qartalar; (4) hamma qartalar bir vaqtda tarqatilib o'ynaladigan payti; (5): soliter (karta o'yini nomi) da tarqatilmagan lekin o'ynaladigan kartalar; b: qarshi kuchlarga birov pozitsiyasining kuchi va mustahkamligi: these developments greatly strenglthed the hands of union policy makers; 11a: muayyan bir ishni bajaruvchi, kishi: two prtraits by the same hand; b(1): biron ishga yoki umumiy topshiriqlar uchun ishga yollangan kishi: a ranch hand; (2): ishchi, xizmatchi: Business was so successful the company soon was employing over a hundred hands; c: kema ekipajining a'zosi: All hands on deck; d: biron bir ishda malakali bo'lgan kishi: a great hand in carpentary; c: mutahassis (muayyan faoliyat yoki mintaqa, o'lka, mamlakat bo'yicha): a Latin America hand; 12: arxaik: axborotlar manbai bo'lgan kishi; 13a arxaik teginish (xususan bo'yoq sho'tka) rasmlarga; b: qo'l ishi: The destruction showed the hand of vandals; c: bajarish usuli: The very brushstrokes showed the hand of a master; 14 revolverning slinderning aylantiruvchi tish; 15 sheva: yaqin ot; 16 Britaniya shevasida: qo'shni joy: He comes from over near Kendal hand; 17 yoki hand game: Amerika hindulari o'ynaydigan qimor o'yini (suyak bo'laklari yoki mayda narsalarni qo'ldan qo'lga o'tkazish orqali ular nima ekanini topib aytish) 18 lotin tilidan olingan manus; 19 o'yinda achko' olish imkoniyati; 20: kiyim yoki charm yoki uning tekisligi, bukiluv yumshoqligini sezish: the warm, dry luxurious hand of silk; 21 shuningdek hand cheese qo'lda tayyorlangan pishloqning har qanday turi. Hand fe'l leksemasi bermoq, topshirmoq, olib bormoq, uzatib yubormoq, uzatmoq ma'nolariga ega bo'lsa, u over, outlar bilan birlashib topshirmoq, bermoq va tarqatmoq, bo'lib (taqsimlab) bermoq ma'nolarini kasb etadi.

“Qo'l” semantikali sifat leksemalarning quyidagi tiplarini aniqlashga muayassar bo'ldik: Handed-qo'lli, qo'llari bor; Hand fast- arxaik: qattiq changallangan; Handy-ishlatish uchun) o'ng'ay, qulay, oson boshqariladigan,

mahoratli, usta chaqqon, Handwrought-qo'lda ishlangan; Handy weight-o'rtacha vazndagi hayvon; Hand-knitted-qo'lda to'qilgan; Handmade-qo'lda qilingan, yasalgan, (qo'l ishi); Hand-picked-saralangan, terilgan; Handsome-chiroyli, ko'rkam, kelishgan (erkaklarga nisbatan), qimmatbaho, qo'li ochiq; Handless-qo'lsiz; Hand-in-hand-yaqin, yonma yon yuradigan.

Tahlillar hand leksemasi murakkab va sodda tarkibli ravish so'z turkumiga mansub birliklarni yuzaga keltirishligini ko'rsatadi. Bular masalan: at close hand-juda yaqinda, at first hand-birinchi qo'ldan, at hand- vaqt yoki joyga nisbatan yaqin, at the second hand-ikkinchi qo'l, bilvosita, ravishda, at third hand-uchinchi qo'l (marta) dan, by hand-qo'l (lar) bilan (yordamida), in hand-qo'lida borligida, into hand-nazoratdagi, on every hand-har joyda, har joydan, on hand-qo'lida (qo'lga kirish arafasida), out of hand-kechiktirmasdan, ikkilanmasdan yoki tayyorlanmay, to hand-qo'lga kelguvchi, handily-mohirona: Hand in glove, Hand and glove-o'ta yaqin aloqada; hand in hand-qo'lini qo'lga berib; Despite the handicap the horse won the race handily va boshqalar.

Shuningdek, taxlillar chog'ida suffiksial hand tarkibli ot (hander-qo'lga beriladigan zarba; handedness-qo'lli bo'lish holati, handiness-mahoratlilik handicapper-ot poygasida xolatni bashorat qilib beruvchi kishi, handlike-qo'lga o'xshagan; ravish yasama so'zlar (handsomely-chiroyli tarzda) ni ham aniqladik.

Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy ingliz tilida "Hand" konsepti so'z reprezentantlari orasida qo'shma ot maqomidagi leksemalar 143tani, qo'shma yasama otlar leksemalar 28 tani, tashkil etadi: handsale, handplay, handout, handdrill, hand-me-down, handcraftman, handicapper, handling room, hand-latter, handloader, handmind, hand stemper, handywoman va boshqalar.

Tahlillar bunday leksik birliklar quyidagicha tayanch modellar asosida yuzaga kelishligini ko'rsatadi: N, Adj, Adv, V, N+N, N+N+Suf, Adj+Suf, V+Adv, N+V, N+conj+N, N+N+N, N+Adj-Adj, N+Prn+Adv, N+Prep+N,

N+adv+N=Adv, N+Adv=N, N+N+Suf+N, N+Suf=Adv, N+V=CV, N+V-ed=Adj, Adj+N=N va hakazolar.

Shunga xulosa sifatida shuni aytish joizki “Hand” konseptining leksik sath birliklari semantic va struktur jihatdan turli-tuman ekanligi mazkur konseptning nominativ zichligi yuqori va komunikativ jihatdan relevant ekanligidan dalolat beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1 Abduvaliyev.M.A To‘siqsizlik konsepti Nominativ maydonini tashkillovchi birliklarning kognitiv, lingvokulturologik va lingvopragmatik xususiyatlari (inglz, o‘zbek va boshqa tillar misolida) filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi Andijon 2023. B 28-29
- 2 Бабушкин А.П., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика и семасцология-Ворожег: Ритм, 2018-с 19-20
- 3 Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Тамбов: изд-во "Таб".ун-та, 2000. 290 с.
- 4 Butayev Sh “English-Uzbek, Uzbek-English dictionary “Tashkent, 2013. 878p.
- 5 Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты преседентных текстов в сознании и дискурсе.-М: Академия, 2000. – с128.
- 6 Юсупов У.Қ. Теоретические основы составительной лингвистики. Ташкент: издательство "Фан". 2007.-с.20:
- 7 Webster’s Third New International Dictionary Unbridged. Springfield, Mass,USA Merriam-Webster incorporated, 1993. -p.p 1026-1028.